

OMON MATJON SHE'RLARINING MAKTAB DARSLIKLARIDA O'QITISH METODIKASI

Alxiyeva Sitora Raximqul qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

I-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada O.Matjonning 6-9-sinf adabiyot darsliklarida berilgan she'rlari tahlili xususida so'z yuritiladi. She'r o'qish mahorati, she'r o'qitish metodikasi, intonatsiya, ma'no va talqin jihatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, maqola maqsadiga erishishda adabiyotshunos-metodist olim va olimalarning qo'llanmalariga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: adabiyot darsligi, she'r, turnalar, ko'klam, dars ishlanma, empatiya metodi, intonatsiya, "Avvalgilarga o'xshamas" she'ri, konsept, "she'r tahlili" jadvali, bayt, misra.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ СТИХОВ ОМОН МАЖОНА В ШКОЛЬНЫХ УЧЕБНИКАХ

Алхиева Ситора Рахимгул кызы,

Студентка 1 курса магистратуры

Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье проводится анализ стихотворений О. Матжона, приведенных в учебниках по литературе для 6-9 классов. Уделяется внимание навыкам чтения стихов, методике обучения поэзии, интонации, смыслу и интерпретации. Также в достижении цели статьи используются пособия литературоведов и методистов, ученых.

Ключевые слова: учебник литературы, стихотворение, журавли, коклам, разработка урока, метод сопереживания, интонация, стихотворение «Непохожий на прежних», концепция, таблица «анализ стихотворения», двуступенчатое, строка.

METHODOLOGY OF TEACHING OMON MATJON'S POEMS IN SCHOOL TEXTBOOKS

Alkhiyeva Sitora Rakhimqul qizi,

1st year master's student of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Abstract. The article deals with the analysis of O.Matjon's poems given in literature textbooks for grades 6-9. Attention is paid to the skills of reading poetry, poetry teaching methodology, intonation, meaning and interpretation. Also, in achieving the goal of the article, reference is made to the manuals of literary critics and methodologists and scholars.

Keywords: literature textbook, poem, cranes, koklam, lesson development, empathy method, intonation, poem "Unlike the Previous Ones", concept, "poem analysis" table, couplet, line.

Kirish. Omon Matjon ijodi rang-barang. Unda turli mavzularda yozilgan she'r va dostonlarni uchratish mumkin. Vatan, tabiat, ona, muhabbat, bolalik, ajdodlar yodi kabi beg'ubor va muqaddas tuyg'ulardan tortib, mardlik va nomardlik, bag'rikenglik va xasislik, sadoqat va xiyonat, sobitlik va munofiqlik, poklik va qoralik kabi azaliy bir-biriga zid, ammo yonma-yon bo'lgan; insoniyatni doim o'ylashga, tafakkur qilishga undagan tuyg'ular shoir she'rlarida tarannum etiladi. Xuddi shunday tabiat haqidagi she'rlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etgan 6-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarni qiziqtirishi shubhasiz.

Asosiy qism. Dastavval, darslikda shoir hayoti va ijodiga qisqacha to'xtalgan bo'lib, bu endigina tanishayotgan yoshqalb egalari uchun shoir shaxsiyati va kim

ekanligi haqidagi faktlar bilan namunaviy taassurot uygʻotadi: “Shoirning eslashicha, kechalari moychiroq yorugʻida kattalar aytgan ertaklar, xalq qoʻshiqlari, sheʼrlarini hayrat bilan tinglab ulgʻaygan. Dastlabki sheʼri maktabda oʻqib yurgan paytida gazetada bosilib chiqqan”[1.208]. Oʻzbekiston xalq shoiri Azim Suyunning “Yomgʻir yogʻib oʻtdi...”, Omon Matjonning “Osmon sogʻinch kabi...” sheʼrlari bir sahifada ketma-ketlikda berilgan boʻlib, har ikkisi ham oʻquvchilarda tabiatning goʻzal manzaralaridan tasavvur uygʻotadi. Toʻrt kufletdan iborat sheʼrning soʻnggi misralariga yuzlansak:

“Ana, ana ular! Safbasta, mumtoz,

Barisi bir jon-u bir tan-u bir par.

Izidan olamni etkizib parvoz,

Qaytib kelayotir yurtga turnalar”[2.210].

Oʻqituvchi sheʼrni avvalo, oʻzi ifodali oʻqiydi, maʼno-mazmunini tushunib oladi soʻngra bolalarga oʻrgatadi. Mana shu jarayonda sheʼrning umumiy mohiyatini oʻzida qamrab olgan **“Sheʼr tahlili”** jadvali bizga qoʻl keladi. Bu jadvalni “Osmon sogʻinch kabi...” sheʼri misolida bilib olamiz:

Tabiat konsepti	Koʻtarilgan mavzular	Sifatlash	Mavhu m otlar	Antonimlar	Sinonimlar
Osmon	tabiat manzarasi	sogʻinch kabi	sogʻinch	qish	olam
qirlar	turnalarning qaytishi	poyonsiz	xabar	koʻklam	borliq
qizgʻaldoq	koʻklam	yashil	zarda		xabar
togʻlar	parvoz		borliq		mujda
lolalar	xushxabar		olam		
borliq			jon		

Jadval sheʼr strukturasi yaqqol namoyon etgan holda uning tahlilini osonlashtiradi. Mulohazalar shaklan boʻlib olinadi keyin umumlashtiriladi. Shu oʻrinda dars ishlanma ham pedagog uchun muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonini tashkil etishdan oldin har qanday badiiy asarni tushuntirishda bu uslubdan foydalanish ham foydadan holi emas:

6-sinfda Omon Matjonning “Osmon sogʻinch kabi poyonsiz...” sheʼrining oʻrganishiga oid elektron dars ishlanmasi namunasi.

Maqsad.

Taʼlimiy maqsad: oʻquvchilarga sheʼrda turnalarning qaytishi orqali tabiat goʻzalliklari tasvirlanganligi, tomlardagi lolaqizgʻaldoqlar, togʻlardagi lolalar argʻuvon mujda - qirmizi xushxabardan darakligi, qishning sovuqliklari orqada qolib, turnalarning qur-quri - koʻklam deya jar solayotganga oʻxshatilishi yuzasidan bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarni tabiatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularda tabiatni qadrlash tuygʻularini uygʻotish.

Rivojlantiruvchi maqsad: oʻquvchilarning asarda ilgari surilgan oʻyalar yuzasidan mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, nutqini oʻstirish

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: ijodiy oʻqish, empatiya metodlari

Darsda foydalaniladigan jihozlar: kompyuter, multimedia vositalari, shoir ijodi, asarga oid koʻrsatmali va didaktik materiallar, audiomaterial va videolavhalar.

Shuningdek, **Darsni mustahkamlash** qismida “Empatiya” metodini qoʻllash quyidagicha amalga oshiriladi. Lirik qahramon ichki dunyosiga “kirish” orqali uning ichki kechinmalarini, tabiatga shaydo tuygʻularini his qilishga oʻrgatish.

“Empatiya metodi (kirishish) - bu insonning boshqa obyekt holatiga kirishidir. Oʻquvchi hissiy-obrazli va fikriy tasavvuri vositasida oʻrganilayotgan obyekt ichiga “kirib olish”ga, uni tushunishga va obrazga oid xususiyatlarni idrok etishga harakat qiladi. Natijada obekt ichiga kirish holatida oʻquvchi oʻzini-oʻzi kuzatish

va baholashga sharoit yaratiladi; foydalanilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi; o'quvchilarning obrazli va fikriy tasavvuri ortadi; dunyoqarashi boyiydi"[3.32].

Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas'uliyatli lahzalaridan biri matnni, albatta, o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qilishi va o'quvchilarning uni tinglay olishidir. Shu o'rinda professor Qozoqboy Yo'ldoshevning quyidagi ogohlantirishi nihoyatda o'rinli: "Ko'pchilik o'qituvchilar, hatto, ayrim uslubiyotchi olimlar ham ifodali o'qish deganda, baland ovoz bilan tinish belgilariga rioya qilib ko'tarinki ruhda qiroat qilishni tushunadilar. Holbuki, asl lirik asarlarni aksariyat hollarda bor ovoz bilan o'qib bo'lmaydi. Hatto, baland, ko'tarinki, binobarinnosamimiy ifoda she'rdagi mayin lirizmni yo'qqa chiqarishi mumkin. Xullas, ifodali o'qish bu - ijodkor holatini tuyib, asarga muhrlangan ruhiy manzaralar bag'rida turib o'qiy bilish demakdir"[4.235].

Shuningdek, she'rning faqat mazmunida turib qolmaslik, undagi yana yashirin tuyg'ularni ochishga harakat qilish kreativlikni yuzaga keltiradi; aks holda she'r jonlantirish ruhidan chekinadi: "Ma'lumki, she'rdagi mazmun tuyg'u bilan qorishiq. Adabiyot darslarida nazmiy matnni ifodali o'qishga har bir so'z zimmasiga ortilgan yukka, tuyg'ular ifodasiga o'quvchie'tiborini qaratadigan savol-topshiriqlar tuzishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchining she'r matnini qayta hikoyalashiga yo'l qo'yilmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun aytib berilganda she'rning ta'sir kuchi yo'qoladi"[5.233].

9-sinf adabiyot darsligidan O.Matjonning qator turkum she'rlari joy olgan bo'lib, ulardan "Avvalgilarga o'xshamas"[6.232] muxammasi ayniqsa, e'tiborni tortadi. She'r "Jadid" gazetasining 2024 yil 9-fevral, 7-sonida ham berilgani o'tmish va bugungi zamonning tamoman farqlanishi, o'xshashliklari ma'lum miqdorda kamayib borayotgani bilan insoniyatni o'ziga jalb qilgani bilan diqqatga sazovordir. Ushbu she'rni ham "**She'r tahlili**" jadvaliga solamiz:

Shaxs konsepti	Ko'tarilgan mavzular	Sifatlash	Mavhum otlar
Shirin	zamon tuzumi	oy	charx

Layli	subutsiz podshohlar	yulduz	falak
Farhod	xiyonatkor ayollar	quyosh	alamlar
Majnun	noshukrlik	g'am	yolg'onchilik
Navoiy	to'g'rilikka da'vat	sanam	ishq
Jamshid	munofiqlik	oyina	ko'ngil
Faridun	bevafolik		hajr
Shoh G'oziy	o'tinch		

Jadval she'ring umumiy mazmun-mohiyatini qismlarga ajratib, undagi yana ko'rish mumkin bo'lgan, yashirin tuyg'u va kechinmalarni topishga yordam beradi; tarixiy shaxslar hayoti va ijodidan qo'shimcha bilim va tarixiy voqealardan xabador bo'lishga, o'tmish va bugungi zamonni qiyoslash va mulohaza qilishga chorlaydi. Bir so'z bilan aytganda, "She'r tahlili" jadvali innovatsion texnologik yondashuvdir. She'rga qaytadigan bo'lsak, azaliy ijtimoiy-siyosiy muammolarni, aniqrog'i illatlarni ko'tarib chiqqan. Jumladan, bul zamonning davri, (inson) qadri, (ko'ngil) dardi, hatto, (yor) hajri ham avvalgilarga o'xshamasligi mumtozqalb shoir tomonidan ta'sirli ifodalangan. She'rda talmeh san'atidan unumli foydalanilgan bo'lib(yuqorida jadvalda keltirilgan), bugungi xotin-qizlarning Layli va Shiringa, muhabbat bobida yigitlar Farhod-u Majnunga - avvalgilarga o'xshamasligiga nisbat beriladi.

Shoirning ushbu she'ri 7 baytlik, misralar soni beshlik - muxammas shaklida yozilgan bo'lib, qofiyalari: *hajri ham, ne sitam, ul sanam, bu alam, rasvoyi dijam, azmu haram, karam* kabi so'zlar baytlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari har bir baytning ichki qofiyalari quyidagilardan iborat: 1-bayt: *bu dam, davr-u raqam, qadri ham, dard-u g'am*; 2-bayt: *elni juda, behuda, o'zimni-da, zimnida*; 3-bayt: *hujrakim, hakim, ichmakim, ichrakim*; 4-bayt: *nisor, or, xor, yor*; 5-bayt: *ushltmang, uyg'atmang, ishlatmang, o'xshatmang*; 6-bayt: *sana, pana, tana, yana*; 7-bayt: *rasmikim, aslikim, kasbikim, vafikim*; radifi: *avvalgilarga o'xshamas*.

Adabiyot darsligiga kiritilgan mazkur sheʼrni oʻqitishda oʻqituvchi avvalo, oʻquvchilarning dunyoqarashi, ayni vaqtdagi ijtimoiy hayotiga bogʻlab tushuntirishi joizdir. Yaʼni, oʻzgaruvchan tabiat, beqaror tuygʻular, osmondagi orzular girdobida boʻlgan, begʻubor bolalikdan jiddiy kattalikka olib boradigan yoʻlni kechayotgan oʻspirin yigit-qizlar nigohida sheʼr faqat goʻyo bir mavzuda, bir qobiqda boʻlib tuyulmasligi kerak. Bugungi hayot endi bolalik kechinmalariga oʻxshamasligi, endi oldingidek yengil emas, balki hamma narsaga jiddiy, xushyorlik bilan qarash lozimligi; mulohazakorlikka, ogohlikka undash; tarixiy shaxslardan misollar keltirish; badiiy asar qahramonlarining hayoti bilan bugungi raqamlashtirish zamonida tafovutlar boʻlsa-da(uchar gilamlar oʻrniga - samolyot, xat tashuvchi kabutar oʻrniga - telefon, ot oʻrniga - avtomobil va h.k), ulardagi maʼnaviyat, sadoqat, ishonch va iroda, jasorat har qanday zamonda tan berish kerak boʻlgan tushunchalar ekanligini oʻquvchilarga anglata bilish orqali taʼlimiy yutuqqa erishiladi.

Topshiriq berilganda ham sheʼrni xohlagan baytidan emas, iloji boricha toʻliq yodlatishga daʼvat etish lozim. Chunki baytlardagi maʼno-mazmun bir-birini toʻldirib, oydinlashtirib borgan. Ularda mantiqiy satrlar ham uchraydi. Xususan, 6-baytning uchinchi misrasida *“Nafs ipiga bogʻlidur ruh iplarini uzgan tana”* deyilganda ruhsiz tan - nafs qulidir; oʻz ruhiyatidan (maqsad-vazifasi, burchidan; oʻzligidan) voz kechgan tana faqat tanovul qilish va hordiq chiqarishdan boshqasiga yaramaydi, degan ibrat va hayotirlikni namoyon etgan hikmatni keltirib chiqaradi. Shu kabi har misrasida hikmat yashiringan bu sheʼrni oʻquvchilarga maʼno-mazmunini turli koʻrsatmali metodlar bilan yetkazib bera olish ularni taʼsirlantirmay qolmaydi.

Xulosa. Umuman olganda, maktab darsliklaridagi sheʼr va nasriy asarlarni oddiylikdan murakkablikka tomon yoʻnaltirish, guruhlarda ishlash, hayotiy dalillar keltirish orqali qisqa vaqt ichida sifatli taʼlim jarayoni tashkil etish va samarali oʻzlashtirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot [matn]:6-sinf uchun darslik/Z.I.Mirzayeva.K.Q.Djalilov. Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2022.-224b.208bet
2. Adabiyot [matn]:6-sinf uchun darslik/Z.I.Mirzayeva.K.Q.Djalilov. Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2022.-224b. 210-bet
3. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi,[uslubiy qo‘llanma]:Saodat Kambarova. “Mahalla va oila nashriyoti”,Toshkent - 2022. 128 b.32-bet
4. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma/Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. “Shafolat nur fayz” nashriyoti. Toshkent - 2020.-352 b. 235
5. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma/Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. “Shafolat nur fayz” nashriyoti. Toshkent - 2020.-352 b. 233
6. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta`lim maktabining 9-sinfi uchun darslik(o‘zbek tilida). Qozoqboy Yo‘ldoshev, Valijon Qodir, Jalolbek Yo‘ldoshbekov. Toshkent - “Mitti yulduz”- 2019. 232 bet